

MOLIYA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Norqulova Shahzoda Ikromovna

Termiz davlat universiteti,

Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya bozorini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari, xalqaro amaliy tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasi sharoitidagi amaliy holati tahlil qilinadi. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi o'rni, regulyatsiya shakllari va davlat institutlarining roli yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston moliya bozoridagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari, statistik ko'rsatkichlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslangan ilmiy yondashuv qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, davlat regulyatsiyasi, tartibga solish, fond bozori, kapital bozori, Markaziy bank, moliyaviy barqarorlik, investor huquqlari, iqtisodiy xavfsizlik, O'zbekiston.

ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА

Норкулова Шахзода Икромовна

Термезский государственный университет, студентка 2 курса направления

«Финансы и финансовые технологии»

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы государственного регулирования финансового рынка, международный опыт и практическое состояние в условиях Республики Узбекистан. Освещается роль финансового рынка в экономике, формы регулирования и роль государственных институтов. Кроме того, выявлены существующие проблемы финансового рынка Узбекистана и разработаны предложения и

рекомендации по их устранению. В исследовании использован научный подход, основанный на данных международных организаций, статистических показателях и анализе нормативно-правовых документов.

Ключевые слова: финансовый рынок, государственное регулирование, регуляторная политика, фондовый рынок, рынок капитала, Центральный банк, финансовая стабильность, права инвесторов, экономическая безопасность, Узбекистан.

ISSUES OF STATE REGULATION OF THE FINANCIAL MARKET

Norqulova Shahzoda Ikromovna

Termez State University, 2nd-year student of the “Finance and Financial Technologies” program

norqulovashahzoda05@gmail.com

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of state regulation of the financial market, international practical experience, and the current situation in the context of the Republic of Uzbekistan. It highlights the role of the financial market in the economy, types of regulation, and the role of state institutions. In addition, existing problems in Uzbekistan’s financial market are identified, and proposals and recommendations for their elimination are developed. The research is based on a scientific approach using data from international organizations, statistical indicators, and analysis of regulatory and legal documents.

Keywords: financial market, state regulation, regulatory policy, stock market, capital market, Central Bank, financial stability, investor rights, economic security, Uzbekistan.

KIRISH

Moliya bozorlarini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy nazariyada muhim o‘rin egallaydi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari (A. Smit, D. Rikardo) bozor iqtisodiyotining o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizmlariga ishonar edi. Ularning fikricha, davlat aralashuvi minimal bo‘lishi lozim, bozor kuchlari esa

narxlar va resurslar taqsimotini optimal tarzda belgilaydi. Biroq XX asrning birinchi yarmida yuz bergan iqtisodiy inqirozlar, xususan, 1929–1933 yillardagi Buyuk Depressiya, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi zarurligini namoyon etdi. Maynard Keynsning fikricha, davlat bozor muvozanatini ta'minlash, moliyaviy inqirozlarning oldini olish va barqaror o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynashi kerak. Keynsiyalik yondashuv asosida davlat moliyaviy sektorda faol regulyator sifatida maydonga chiqdi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, jumladan, **institutsionalizm** (D. Nort, O. Uilyamson) davlat va institutlarning samaradorligini moliya bozorlarining samarali ishlashi uchun zarur shart sifatida ko'radi. Shuningdek, **regulyativ iqtisodiyot nazariyasi** moliyaviy regulyatsiya va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganadi. Bu yondashuvga ko'ra, tartibga solish darajasi ortiqcha bo'lsa, innovatsiyalarni bo'g'adi, kam bo'lsa — moliyaviy beqarorlik yuzaga keladi. Shu sababli, tartibga solishda balansli yondashuv zarur.

Xalqaro amaliyotda moliya bozorini tartibga solishning quyidagi shakllari mavjud:

- ✓ **Prudensial (ehtiyotkorlik asosidagi) regulyatsiya** – moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilgan choralar (kapital yetarliligi, risklarni boshqarish talablari);
- ✓ **Qoidaviy regulyatsiya** – ishtirokchilarning harakatlarini tartibga soluvchi normativlar;
- ✓ **Bozorni muvofiqlashtirish va nazorat** – moliya institutlari faoliyatini monitoring qilish;
- ✓ **Litsenziyalash va akkreditatsiya** – moliya tashkilotlarining qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash.

So'nggi yillarda regulyatsiya tizimida **makroprudensial yondashuvlar, raqamli moliya, kriptoaktivlar bozorini tartibga solish** kabi yangi yo'nalishlar shakllanmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar – IMF, BIS, IOSCO, va Jahon banki – moliya bozorlarini samarali tartibga solish bo'yicha global standartlarni ishlab

chiqmoqda. Shu tariqa, nazariy va amaliy manbalar davlatning moliya bozoridagi roli bozor iqtisodiyotining izchil ishlashi uchun zarurligini ko'rsatmoqda. Endi esa O'zbekiston tajribasi asosida bu masalani tahlil qilish muhim.

Mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizdagi muhim vazifalardan biridir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947-sonli Farmonida ham ushbu masalaga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilab qo'yilgan.¹ Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozorini rivojlanishiga qarab, uning ishtirokchilari faoliyatini ikki xil tartibga solish amaliyoti taraqqiy topgan, ya'ni ular davlat va bozor munosabatlariga mos yoki bozor orqali tartibga solish shakllari hisoblanadi. Moliya bozorini bozor orqali tartibga solish iqtisodiyotning qiymat va talab -taklif qonuniga asoslanadi. Moliya bozorida ushbu qonunlarning amal qilishi raqobat muhitida jahon iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos ravishda xalqaro moliyaviy oqimlarni ta'minlab beradi. Iqtisodiy agentlar alohida moliyaviy vositalar narxining kursi yoki foiz stavkasi) o'zgarishi, shakllanishi orqali ularni sotib oluvchilarning talablarini va ularga bo'lgan taklifni aniqlaydilar. Bunda, xalqaro moliya bozori o'zini-o'zi tartibga soluvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda moliya bozorlarini tartibga solishning ahamiyati xalqaro darajada ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ta'kidlanmoqda. F.Moshirianga ko'ra, jahon miqyosida integratsiyalashgan moliyaviy tizim mavjud bo'lmaganligi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF -4947sonli Farmoni.

sababli milliy va global moliyaviy inqirozlar vaqtida mavjud tartibga solish qoidalari transchegaraviy tartibga solish masalasini hal qilolmadi.

K.Amadeoning ta'kidlashicha, moliyaviy tartibga solish iste'molchilarning investitsiyalarini himoya qiladi. Tartibga solish moliyaviy firibgarlikning oldini oladi va moliya institutlar tomonidan investorlarning pullarini jalb qilish riskini kamaytiradi. Moliyaviy tartibga solish uch asosiy moliyaviy sektorni nazorat qiladi: bank, moliya bozori va iste'molchilar.² J.Ataniyazov va E.Alimardonovlar bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozori rivojlanishiga qarab uning ishtirokchilar faoliyatini tartibga solish ikki xil bo'lishini aytgan, ya'ni ular davlat va bozor orqali tartibga solish shakllari hisoblanadi. Moliya bozorini bozor orqali tartibga solish iqtisodiyotning qiymat va talab-taklif qonuniga asoslanadi. Moliya bozori ko'plab sub'yektiv omillar, ya'ni siyosiy, ijtimoiy, informatsion, madaniy va boshqa omillar ta'sirida har doim ham o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga ega emas. Bunday holatda davlat aralashuvi talab etiladi. Moliya bozorini davlat va bozor orqali tartibga solinishi o'zaro bir-birini to'ldirib boradi.³

Tadqiqot metodologiyasi

Moliya bozorlari munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilish bilan bog'liq muammolar Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotlarida ko'payib bormoqda, chunki xorijiy moliyaviy kompaniyalar mintaqadagi moliya bozorlaridagi ishtirokini oshirmoqda va mintaqaning moliyaviy kompaniyalari o'zlarining tashqi operatsiyalari ko'lamini ham kengaytirmoqda. Bundan tashqari, Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy aloqalarning o'sishi mintaqaning o'zida mamlakatlararo moliyaviy operatsiyalar hajmi tez sur'atlar bilan o'sishini anglatadi. Osiyo uchun moliyaviy integratsiyalashuvning asosiy jihati mintaqaga va undan tashqariga yo'naltirilgan kapital oqimi bilan bog'liq bo'lib, ularning har ikkisi ham so'nggi yillarda keskin o'smoqda.

Quyidagi omillar Osiyoda mamlakatlararo moliya bozori munosabatlarini samarali tartibga solish zaruriyatini kuchaytiradi:

² K.Amadeo. Financial Regulations. The balance. March 14, 2020. Page 234

³ J.Ataniyazov, E.Alimardonov. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 336-bet.

1. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan kapital kirib kelishi;
2. Osiyo banklarining o'sib borayotgan xalqaro ekspozitsiyasi;
3. Osiyo uy xo'jaliklarining chet el investitsiyalariga bo'lgan talabi;
4. Institutsional investorlarning roli.

Osiyo mintaqasida joylashgan institutsional investorlar, shu qatorda pensiya jamg'armalari ham xususiy, ham davlat mablag'larining chet elga chiqishi uchun muhim kanal bo'lib xizmat qiladi. Milliy valyuta zaxiralarining bir qismini boshqaradigan suveren fondlar chet el aktivlari qiymati nisbatan arzon bo'lgan taqdirda ham chet elga investitsiyalarni izlashlari mumkin va bu holat global moliyaviy bozorlar barqarorlashgandan keyin ham saqlanib qolishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti tizimi zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat moliyaviy boshqaruv vositasi, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik, infratuzilma rivoji va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim mexanizmdir. Davlat byudjeti orqali milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi, aholining ijtimoiy himoyasi kuchaytiriladi hamda makroiqtisodiy muvozanat saqlanadi. Byudjet daromadlarining tarkibi va ularning shakllanish mexanizmlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar hamda davlat mulkidan tushadigan daromadlar davlat byudjetining asosiy manbalari bo'lib, ular samarali boshqarilmagan taqdirda iqtisodiy nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin. Umuman olganda, davlat byudjeti tizimi va daromadlarining shakllanishi tizimli, samarali va ochiq boshqarilsa, bu mamlakatning iqtisodiy suvereniteti, fiskal barqarorligi va investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliya bozori iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uni samarali tartibga solish orqali makroiqtisodiy muvozanat, investitsiya faolligi va moliyaviy ishonch oshadi. O'zbekiston sharoitida moliya bozorini tartibga solishda ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, hali hal etilishi

zarur bo'lgan muammolar mavjud. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarning muvofiqlashtirilmaganligi, bozor ishtirokchilarining soni kamligi, investorlar uchun axborot shaffofligining pastligi kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Kelgusida raqamlashtirish, institutsional salohiyatni kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashuv orqali tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947sonli Farmoni. 17.02.2017. <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. Keynes, J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. Macmillan, 1936.
3. K.Amadeo. Financial Regulations. The balance March 14, 2020. <https://www.thebalance.com/financial-regulations-3306234>
4. J.Ataniyazov, E.Alimardonov. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 336-bet. http://el.tfi.uz/images/Xalqaro_moliya_munosabatlari_a4e0e.pdf
5. Masahiro Kawai and Eswar S. Prasad. Financial Market Regulation and Reforms in Emerging Markets. Asian Development Bank Institute, Tokyo 100-6008, Japan. The Brookings Institutions, Washington DC 20036, US. 2011. Page <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/159338/adbifinancialmarketregulationand-reforms-emerging-markets-highlights.pdf>
6. International Monetary Fund. *Global Financial Stability Report*. IMF, 2023.
7. IOSCO. *Objectives and Principles of Securities Regulation*. 2017.
8. Iso2mov, B., & Xodjayev, S. (2020). "O'zbekiston moliya bozori: rivojlanish holati va istiqbollari." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №5.
9. Xudoyqulova, N. (2021). "Moliya bozorini tartibga solishning huquqiy asoslari." *TDIU ilmiy axborotnomasi*, №2.